



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA ISTE’MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO‘MITASI

B U Y R U Q

Toshkent shahri

2024-yil “ 20 ” iyun

130-ICH-son

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qaroriga muvofiq, Qo‘mita tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan asosiy talablar va tamoyillarni belgilash, Qo‘mita tizimi xodimlari tomonidan o‘z faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik va bu borada samarali tizimni shakllantirish maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (Qalandarov) Qo‘mita markaziy apparati, hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlar xodimlarini bir hafta muddatda mazkur buyruq bilan tanishtirilishini ta’minlasin.

3. Devonxona (Ikramova) mazkur buyruqni Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlariga yuborilishini ta’minlasin.

Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Rais o‘rinbosari



A. Qayumov

**O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar
huquqlarini himoya qilish qo'mitasining korrupsiyaga qarshi kurashish
SIYOSATI**

I-bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi (*keyingi o'rinlarda – Qo'mita deb yuritiladi*)ning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (*keyingi o'rinlarda – Siyosat deb yuritiladi*) Qo'mita markaziy apparati, hududiy organlari va tizimdagi tashkilotlari (*keyingi o'rinlarda – Qo'mita tizimi*) xodimlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish, shuningdek, Qo'mita tizimi xodimlari o'z faoliyatida korrupsion huquqbuzarliklarga murosasiz munosabatda bo'lishi va sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikni qo'llab-quvvatlashini namoyon etadi.

2. Mazkur Siyosat ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlari - foydalanish bo'yicha talablar va tavsiyalar" xalqaro standarti va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari tavsiyalari, korrupsiyaga qarshi kurashishda yetakchi davlatlarning tajribalari asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

Qo'mita tizimida korrupsiyaga barham berilishiga erishish;
aholining Raqobat va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi huquqiy ongini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

Qo'mita tizimida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsion huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, uning oqibati, sabab va omillarini bartaraf etish, jinoyatga jazo muqarrarlighi prinsipini amalda ta'minlash.

4. Siyosat Qo'mitaning ichki idoraviy hujjati sifatida yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun Qo'mita tizimi faoliyatida korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga barham berishga qaratilgan talablar va tamoyillarni belgilab beruvchi asos hisoblanadi.

5. Siyosat talablari egallab turgan lavozimi, bajaradigan vazifa va funksiyalaridan qat'iy nazar, Qo'mita tizimida mehnat faoliyatini yuritayotgan barcha xodimlar uchun majburiy hisoblanadi.

Qo'mita tizimiga ishga qabul qilinayotgan har bir shaxs mazkur Siyosat bilan tanishishga va uning qoidalariga rioya qilishga majburdir.

6. Siyosatda quyidagi asosiy tushuncha va atamalar ishlatiladi:
ish jarayonidagi mehmondo'stlik belgilari – Qo'mita tizimi xodimlarining faoliyati davomida manfaatlari doirasida hamkorlik ko'rsatish va (yoki) qo'llab-quvvatlashga

aloqador xarajatlarning qoplanishi;

kontragent (shartnomaviy sherik) – Qo‘mita tizimi bilan shartnomaviy munosabatlarga (*mehnat munosabatlari bundan mustasno*) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

korruptsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaviy xavf-xatar – Qo‘mita tizimi xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Qo‘mita tizimi nomidan va (*yoki*) ularning manfaatlarini ko‘zlab korruptsiyaviy hatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi;

korruptsiyaviy xatti-harakatlar - xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirgan harakati yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani, ya‘ni pul, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tUSDagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olishi, talab qilishi, taklif qilishi, va‘da qilishi va berishi, shuningdek, pora berishi va (*yoki*) olishda vositachilik qilishi, rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to‘lovlarni olishi, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o‘z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanish;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi - qo‘llaniladigan amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarning korruptsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Qo‘mita tizimi xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta‘minlash chora-tadbirlari majmui;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik - korruptsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to‘qnashuvi - shaxsning shaxsiy (*bevosita yoki bilvosita*) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (*mavjud manfaatlar to‘qnashuvi*) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (*ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi*) vaziyat;

rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to‘lovlar - belgilangan tartib-taomillar bajarilishini ta‘minlash yoki tezlashtirish, tegishli qonunchilik normalari va qoidalarida nazarda tutilmagan harakatlar sodir etish uchun g‘ayriqonuniy ravishda beriladigan pul mablag‘lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar va boshqa moddiy yoki nomoddiy naf;

xodim – Qo‘mita tizimida mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

yaqin qarindoshlar - ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

II-bob. Korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari

7. Qo‘mita korruptsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiradi:

qonuniylik – Qo‘mita korruptsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatini

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda hamda davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tan olingan xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda amalga oshiradi;

korrupsiyaga nisbatan murosasizlik – Qo'mita tizimi faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladi. Xodimlarning har qanday korrupsion xavf kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi taqiqlanadi;

ochiqlik va shaffoflik – Qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida shaxsiy tarkib va kontragentlar, shuningdek, keng jamoatchilik doimiy xabardor qilib boriladi;

preventivlik – Qo'mita korrupsion xatti-harakatlar sodir etilishiga va korrupsion xavf vujudga kelishiga sabab bo'ladigan shart-sharoit hamda omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida ahamiyat beradi;

tizimlilik - korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar Qo'mita tizimi faoliyatining barcha yo'nalishlarida tizimli ravishda amalga oshiriladi;

jamoatchilik nazorati – Qo'mita tizimida yuklatilgan vazifalarni shaffoflik va xolislik asosida bajarilishini ta'minlash maqsadida, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni baholash uchun jamoatchilik vakillari jalb qilinadi;

korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarlighi - korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Qo'mita tizimi xodimlari o'zining maqomi va egallab turgan lavozimidan qat'i nazar Qo'mitaning ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar;

axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish – Qo'mita o'z faoliyatini amalga oshirishda "inson omilini hamda korrupsiya holatlarining salbiy ko'rinishlarini kamaytirish maqsadida, axborot texnologiyalarini rivojlantirish va integratsiyalashtirilgan axborot tizimlarini joriy etishga hamda foydalanishga intiladi;

rahbariyatga to'g'ridan - to'g'ri murojaat – Qo'mita tizimining har bir xodimi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganligi to'g'risida ishonchli va asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda, belgilangan choralarni ko'rilishi uchun Qo'mita, uning hududiy organlari va tizimdagi tashkilotlari rahbarlariga to'siqlarsiz murojaat qilish huquqiga ega;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish - korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish natijalariga ko'ra, Qo'mita o'z tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to'xtovsiz ravishda oshirib borish choralarni ko'radi.

III-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari

8. Korrupsiyaga "mutlaqo murosasizlik" tamoyiliga tayangan holda Qo'mita tizimining barcha xodimlariga korrupsiya bilan bog'liq har qanday xatti-harakatlarda ishtirok etishi, ya'ni pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi yoki harakatsizligi uchun bevosita yoxud bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora (*pullar, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy tusdagi xizmatlarni*)

berishni talab qilish, tovlamachilik qilish, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to'lovlarni olish, shaxs tomonidan pora olish yoki g'ayriqonuniy boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanishi qat'iyan taqiqlanadi.

9. Quyidagilar Qo'mitaning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy elementlari hisoblanadi:

- ***Korrupsiyaga qarshi kurashishni nazarda tutuvchi ichki idoraviy hujjatlarning mavjudligi.***

Bunda, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosini:

mazkur Siyosat;

Qo'mita tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalarini;

Qo'mitaning Ichki mehnat tartibi qoidalarini;

Qo'mita tizimidagi davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom;

Qo'mita tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom;

Qo'mita tizimi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament;

boshqa taalluqli ichki idoraviy hujjatlarda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

- ***Rahbarlarning siyosiy irodasi.***

Qo'mita rahbariyati, shuningdek, hududiy organ va tarkibiy tuzilmalar rahbarlari bo'ysunuvidagi xodimlar, jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda halol, adolatli munosabatda hamda namunaviy xulq-atvorga ega bo'lishlari kerak.

Qo'mita rahbariyati hamda hududiy organlar va tizim tashkilotlari rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish va amalga oshirishda quyidagilar orqali siyosiy irodani namoyish etadi:

Qo'mita faoliyatida korrupsion xavf mavjud vazifalar, sohalar va funksiyalarni boshqarishda samarali chora-tadbirlar va tartiblarni joriy etishda, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini (*yo'l xaritasini*) ishlab chiqish va uning ijrosini nazorat qilishda tashabbuskor bo'lishi;

o'z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasida, Qo'mita tizimi xodimlarida korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirgan holda huquqiy nigilizm va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, amaldagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlarga rioya qilishi;

xodimlar, jismoniy va yuridik shaxslar bilan muloqotda axloqiy xulq-atvor yuzasidan shaxsan namuna sifatida namoyon bo'lishi lozim.

- ***Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul shaxslar va bo'linmalar.***

Qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsion xavfni aniqlash va baholash Qo'mitaning Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi tomonidan tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonga Qo'mita tizimi rahbarlari hamda boshqa taalluqli tarkibiy tuzilmalari ham faol jalb etiladi.

Qo'mitaning Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi o'z vazifalarini amalga oshirishda yetarli darajada mustaqillikka va resurslarga ega bo'lib, bevosita Qo'mita raisiga bo'ysunadi.

Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini

o'rganish bo'limi o'z faoliyatini Qo'mita raisi tomonidan tasdiqlangan nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida kelib tushgan ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va uni hal qilish yoki aniqlangan holatlarni tartibga solish choralari ko'radi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlar tahlil qilinib, Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirib boradi.

Qo'mita, shu jumladan, Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi korrupsiyani aniqlash va tekshirishda, vakolat doirasida huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa vakolatli davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda Qo'mitaning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi qonunchilik hujjatlari normalariga muvofiq belgilangan tartibda va hajmda xodimlar, aloqador shaxslarning yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va tizimli yig'ish, tahlil qilish hamda yangilab borish uchun javobgar bo'ladi.

- ***Korrupsion xavfni aniqlash va baholash.***

Qo'mita tizimi korrupsiyaga nisbatan muvofiq munosabatda bo'lishini hisobga olgan holda faoliyatida ko'lami va ta'sir qilish darajasidan qat'i nazar korrupsion xavfni boshqarish zaruratini tan oladi.

Qo'mita tizimi faoliyatining barcha sohalari korrupsion xavfga ko'proq uchraydigan soha (*funksiya, yo'nalish*)larni aniqlash maqsadida tizimli tahlildan o'tkaziladi.

Shunga ko'ra, Qo'mita tizimi faoliyati, tarkibiy tuzilmalari, sohalari va bajarilayotgan funksiyalariga xos hamda boshqa ichki va tashqi omillarga bog'liq holda korrupsion xavfni aniqlaydi hamda baholaydi.

Korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash va baholash jarayonida Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi boshchiligi hamda nazorati ostida Qo'mita markaziy apparati mustaqil tarkibiy tuzilmalari rahbarlari ishtirok etadi.

Korrupsion xavfni baholash yiliga kamida bir marta amalga oshiriladi. Baholash natijalari Qo'mita raisi va uning o'rinbosarlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Aniqlangan xavflarni boshqarish, minimallashtirish hamda uning asosiy omillarini bartaraf etish choralari Qo'mitaning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlari, ish rejaları yoki yo'l xaritalarida aks ettiriladi.

- ***Aniqlangan korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan choralar.***

Qo'mita tizimi o'z faoliyatidagi korrupsion xavflarni boshqarish, umumiy nazorat muhitini yaratish va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarini o'z ichiga oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning kompleks tizimini joriy etadi.

Qo'mita tizimi korrupsiyaga qarshi kurashishni nazorat qilish va tartib- taomillarning samaradorligi, jumladan, ularning aniqlangan xavf darajasiga mutanosibliigi, o'z xodimlari uchun qat'iyiligi va aniqligi, keng jamoatchilik uchun

shaffofligini ta'minlaydi.

Korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nazorat choralari va tartib-taomillar Qo'mita tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha me'yoriy hujjatlari (*chora-tadbir, ish reja, yo'l xaritasi*)da aks ettiriladi.

- **Xabardor qilish va maslahat berish.**

Korrupsion xavfni kamaytirish va Qo'mita tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablarini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida, mazkur Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'risidagi asosiy ma'lumotlar Qo'mitaning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlari bilan tanishtirish maqsadida:

Qo'mita tizimi xodimlarini har yili kamida bir marotaba korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha doimiy va tizimli o'qitish, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni ushbu Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki hujjatlar bilan majburiy tartibda tanishtiriladi, korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar uchun Qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha ta'lim dasturlari belgilanadi, o'tkazilgan o'qish (*trening*)lar haqidagi ma'lumotlar belgilangan tartibda Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limida saqlanadi;

Qo'mita tizimi xodimlari va fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirish maqsadida audio va videoroliklar hamda boshqa axborot ma'lumotlaridan foydalangan holda profilaktik tadbirlar tashkil etiladi;

Qo'mitada tashkil qilingan Qo'mita tizimi xodimlari tomonidan sodir etilgan yoki etilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlar bo'yicha xabar berilishi mumkin bo'lgan aloqa kanallarini doimiy faoliyat yuritishi ta'minlanadi;

Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini va tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq savollar kelib chiqqanda tizim xodimlariga maslahatlar beradi;

Qo'mita tizimi xodimlari bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini kiritiladi;

xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishda lozim bo'lgan xulq-atvorini shakllantirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshiriladi;

kontragentlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan talablar va tamoyillar haqida, shu jumladan, ular bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan maxsus shartlar kiritilishi to'g'risida xabardor qilinadi va hokazo.

- **Monitoring, nazorat va hisobot.**

Qo'mitaning Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarning ishlab chiqilishini, mutanosibligini va samaradorligini baholaydi hamda doimiy monitoringini olib boradi.

Monitoring natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli choralarni ko'radi.

Qo'mita tizimida monitoring va nazorat qilishning quyidagi tartib-taomillari amalga oshiriladi:

ichki va tashqi omillarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga ta'sirini o'rganish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga o'zgartirish kiritish zaruriyatini tahlil qilish, shu jumladan, uni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash;

samarasiz tartib-taomillarni aniqlash, tegishli o'zgartirishlar kiritish va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ishonchliligi va natijadorligini ta'minlash maqsadida tanlov asosida funksiyalar va ichki jarayonlarni monitoring qilish;

ichki va (yoki) tashqi tekshiruvlarni o'tkazish jarayonida xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talablarga rioya qilishini nazorat qilish va boshqalar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini nazorat qilish va monitoringi bo'yicha chora-tadbirlar natijalari Qo'mitaning korrupsiyaga qarshi kurashish kengashi yig'ilishlarida, shuningdek, Qo'mita raisi (yoki o'rinbosari) topshirig'iga asosan o'tkaziladigan ishchi yig'ilishlarda muhokama qilinishi mumkin.

• ***Huquqbuzarliklarga nisbatan munosabat bildirish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish.***

Mazkur Siyosatga va Qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarga rioya qilish har bir xodim uchun majburiydir. Qo'mita tizimining har bir xodimi belgilangan talablarni buzganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Qo'mita markaziy apparati tarkibiy tuzilmalar, hududiy organlari va tizimdagi tashkilotlar rahbarlari o'z bo'ysunuvidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga mas'ul hisoblanadi.

Xodimlar ularni korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlikni sodir etishga undovchi shaxslarning har qanday murojaatlari to'g'risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida o'ziga ma'lum bo'lgan har qanday faktlar haqida Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishlari shart.

Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi tomonidan xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishlari bilan bog'liq har qanday asosli shubha bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq va ichki hujjatlarda belgilangan tartibga asosan xizmat tekshiruvlari o'tkaziladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari normalarini, mazkur Siyosat va boshqa ichki idoraviy hujjatlarda belgilangan korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillarni buzgan xodimlar, ularning lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda Qo'mitaning ichki idoraviy hujjatlarida belgilangan normalar asosida javobgarlikka tortiladilar.

IV-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari

1-§. Manfaatlari to'qnashuvini boshqarish

10. Qo'mita tizimi xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish va *(yoki)* Qo'mita manfaatlarini ifodalash doirasida vijdonlilik, halollik tamoyillariga amal qilishi, shaxsiy manfaatlari yo'lida xizmat mavqeidan va *(yoki)* Qo'mitaning mulkidan foydalanmaslik va manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan saqlanishlari lozim.

Qo'mita tizimidagi xodimlarining o'z xizmat majburiyatlarini lozim darajada va xolis bajarishlariga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan, shuningdek, xodimning shaxsiy manfaatdorligi bilan Qo'mita tizimidagi tashkilotning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga keladi.

Qo'mita tizimining har bir xodimi xizmat vazifalarini bajarish chog'ida vujudga kelgan yoki vujudga kelishi ehtimoli mavjud bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi haqida o'zining bevosita rahbariga zudlik bilan xabar berishi shart.

11. Qo'mita, nomzodlarni ishga qabul qilishda va boshqa lavozimga o'tkazishda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni har yili va tegishli vaziyatlar yuzaga kelishiga qarab oshkor qilishga majburdir.

12. Qo'mita tizimida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va uni hal qilish jarayoni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ichki me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

2-§. Sovg'alar va ish jarayonida mehmondo'stlik belgilari

13. Qo'mita tizimi xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg'a yoki mehmondo'stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag'batlantirish vositalari, naqd pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida moddiy yordam qabul qilish taqiqlanadi *(xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'alar bundan mustasno)*.

14. Xodimlar tomonidan rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy tadbirlarda, jumladan, xorijiy xizmat safarlarida olingan sovg'alarning olinishi va tasarruf etilishi "Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek, uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi Nizomga *(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 13-martda 3425-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan)* muvofiq amalga oshiriladi.

15. Qo'mita tizimi jamoasi tomonidan xodimlarga ularning shaxsi bilan bog'liq bayram kunlarida *(tug'ilgan kun, nikoh tuzish, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni va hokazo uchun)* berilgan, xizmat majburiyatlarini bajarishga bog'liq bo'lmagan sovg'alar-xodimning shaxsi bilan bog'liq sovg'alar, deb tan olinadi.

Bunday sovg'alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

sovg'alar kamida uch nafar xodimlar ishtirokida berilishi lozim;

sovg'a berish jarayoni tabrik nutqi bilan birga bo'lishi, unda sovg'a berishga sabab bo'lgan voqea o'zining aniq ifodasini topgan bo'lishi kerak;

sovg‘aning umumiy qiymati (barcha soliqlar va yig‘imlarni hisobga olgan holda) bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o‘n) baravaridan oshmasligi kerak.

Bir xodimning boshqa xodimga sovg‘a uchun sarflaydigan xarajat summasi, har bir holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) baravaridan oshmasligi shart.

16. Qo‘mita tizimining har bir xodimi shaxsi bilan bog‘liq bayram kunlari (*Siyosatning 15-bandida qayd etilgan*) munosabati bilan ham boshqa davlat idoralari, jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan har qanday ko‘rinishdagi sovg‘alar, boshqa moddiy va nomoddiy qimmatliklarni olishi taqiqlanadi.

17. Xalqaro konferensiyalarda, simpoziumlarda va boshqa xizmatga oid ishbilarmonlik yig‘ilishlarida Qo‘mita nomidan sovg‘alar berish Qo‘mita raisi (*yoki uning tegishli o‘rinbosarlari*) buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

18. Sovg‘a qabul qilishning qonuniyligi bo‘yicha shubha tug‘lgan har qanday holatda xodimlar Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish bo‘limiga maslahat so‘rab murojaat qilishi lozim.

3-§. Xodimlarni tanlash, lavozimdan lavozimga o‘tkazish, moddiy rag‘batlantirish

19. Xodimlarni tanlash, ularni attestatsiyadan o‘tkazish va faoliyatini baholash, shu jumladan, mukofot pullarini to‘lash, ustama va boshqa turdagi mukofotlarni belgilash jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng va xolis bo‘lib, ushbu Siyosatning tamoyillari va talablariga muvofiq kelishi lozim.

20. Qo‘mita tizimida rahbar va xodimlarni mukofotlashga asos bo‘lib xizmat qiladigan, ular faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim. Ushbu ko‘rsatkichlar xolis, oshkora hamda tizim xodimlari tomonidan ko‘rib chiqish imkoniyati ta‘minlangan bo‘lishi shart.

4-§. Nazorat tadbirlarini tashkil etish

21. Nazorat tadbirlarini tashkil etishda Qo‘mita tizimining har bir mas‘ul xodimi: manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi; nazorat tadbiri imkon qadar bir nafar xodim tomonidan amalga oshirilmasligi; sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarni soxtalashtirish uchun tekshirilayotgan subyekt vakillarining yetarli bilimga ega emasligidan foydalanib qonunchilik hujjatlari normalarini noto‘g‘ri talqin qilmasligi, ularni aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish bilan qo‘rqitmasligi; nazorat tadbiri o‘tkazilayotgan subyekt vakillariga tahdid qilmasligi; nazorat tadbiri predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasligi va ortiqcha hujjatlarni so‘ramasligi;

Qo‘mita tizimining xodimlari nazorat tadbiri davomida aniqlangan har bir huquqbuzarlik holatlariga qonuniy va professional baho berishi;

agar, subyekt vakillari aniqlangan qonunbuzarliklarni yashirish uchun pora yoki biron-bir moddiy va nomoddiy qimmatlik yoki xizmatlarni taklif qilsa, Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish bo‘limi xodimlarini bu haqida darhol xabardor qilishi;

subyekt vakillariga axloqiy xulq-avtor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo‘lishi shart.

22. O‘tkazilgan nazorat tadbiri natijalari bo‘yicha taqdim etilgan shikoyatlar

yuzaga kelgan nizolar asosida yuqori turuvchi organ tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi tashkil etiladi.

5-§. Kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar

23. Qo'mita tizimidagi tashkilotlar ushbu Siyosatning tamoyillari va talablariga zid bo'lgan har qanday to'lovlar va (yoki) shu kabi korrupsiyaviy xavf- xatarlarni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi mahsulot yetkazib beruvchilarni, pudratchilarni va boshqa uchinchi tomonlarni jalb qilmaydilar.

24. Qo'mita tizimidagi tashkilotlar kontragentlar bilan munosabatlarda o'z faoliyatini amalga oshirishida qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladilar. Shuningdek, tanlashning xolis mezonlaridan foydalanishga asoslangan, mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlab olishning haqqoniy, ochiq va shaffof jarayonini hamda sotib olinadigan mahsulotning bahosini aniqlashning amaldagi qonunchilik va Qo'mitaning ichki idoraviy hujjatlari bilan tartibga solinadigan tartibini ta'minlaydi.

25. Qo'mita tizimidagi tashkilotlar kontragent bilan o'zaro hamkorlikda:

ehtimoli yuqori bo'lgan kontragentning ishonchliligini, shu jumladan, ilgari korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganligi, Qo'mita tizimidagi tashkilotlarda davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik normalariga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalari doirasida Qo'mita tizimidagi xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini tekshiradilar;

bo'lajak kontragentni (*tanlov, tender g'olibini va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid kontragentini*) o'zining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablari haqida ular bilan tuziladigan shartnomalar matniga maxsus shartlarni qo'shgan holda xabardor qiladi va tanishtiradi.

26. Qo'mita tizimidagi tashkilotlar amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xayriya va homiylikni qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olgan paytda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilmasligi, mablag'lar qonunda yoki shartnomada belgilangan maqsadlar uchun samarali sarflanishini ta'minlanishi shart, shuningdek, bu haqda rasmiy veb-sayt orqali jamoatchilikka oshkor qilinishi mumkin.

6-§. “Sirli mijoz” tadbiri

27. Qo'mita tizimidagi xizmatlar sifati va tezligini, shuningdek, mas'ul xodimlarning huquqbuzarlik sodir etishiga moyilligini aniqlash maqsadida jismoniy yoki yuridik shaxslar, shu jumladan iste'molchilar orqali alohida nazorat (“*sirli mijoz*”) tadbirlari o'tkazilishi mumkin.

28. O'tkazilgan “sirli mijoz” tadbirlari to'g'risidagi hisobotlar Qo'mitaning korrupsiyaga qarshi kurashish kengashida ko'rib chiqiladi va korrupsiya xavfi aniqlangan taqdirda xizmat tekshiruvi o'tkazish yuzasidan Qo'mita rahbariyatiga taklif kiritiladi.

7-§. Qo'mita tizimidagi tashkilotlar faoliyatini videotasvirga olish va translyatsiya qilish

29. Qo'mita tizimida xodimlarining faoliyatini nazorat qilish uchun xizmat xonalarida video va audio yozuv kameralari joylashtirilishi, ularning yozuvlari

Qo‘mitaning mas‘ul xodimlari tomonidan doimiy ravishda kuzatib borilishi mumkin.

30. *Qo‘mitaning rasmiy veb-saytiga korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyalari joylashtirilishi mumkin (ishga qabul qilishda nomzodlar bilan suhbat va boshqalar).*

8-§. Ichki idoraviy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

31. Ichki idoraviy hujjatlar, ularda korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon yaratadigan korrupsiyaviy omillar kelib chiqishini oldini olish, aniqlash va istisno qilish maqsadida ekspertizadan o‘tkaziladi.

9-§. Qo‘mita tizimidagi xodimlarga maslahat berish

32. Qo‘mita tizimi xodimlarida korrupsiyaga qarshi amaldagi qonunchilik hujjatlari talablari, ushbu Siyosat qoidalari yoki Qo‘mita tizimida korrupsiyaga qarshi boshqa chora-tadbirlar va tartib-taomillar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday savollar bo‘yicha o‘zlarining tuzilma rahbarlari, Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish bo‘limi mas‘ul xodimlari hamda Qo‘mitaning ishonch telefoniga murojaat qilishlari mumkin.

V-bob. Korrupsion huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar berish

33. Qo‘mita tizimining xodimlari, agar ularda xodimlar xatti-harakatlarining qonuniyligiga, odob-axloq normalariga rioya qilishiga shubha tug‘ilsa, shuningdek, korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlari sodir etishiga gumon yoki sodir etilganligi faktlari bois, ular bu haqda Qo‘mitaning aloqa kanallari orqali xabar berishlari mumkin.

34. Qo‘mita o‘z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida huquqbuzarlik to‘g‘risida ishonchli ma‘lumot bergan shaxsning maxfiyligini ta‘minlaydi (*qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno*).

35. Qo‘mita o‘z xodimlarining manfaatlarini himoya qiladi va qasos olishga qaratilgan harakatlarga, shu jumladan, ishdan bo‘shatish, lavozimni pasaytirish, kamsitish, bosim o‘tkazish, Qo‘mita tizimining boshqa xodimlarining shubhali harakatlari yoki ular tomonidan ushbu Siyosatning korrupsiyaga qarshi talablarini buzish ehtimoli haqida xabar bergan shaxslarning ta‘qib qilinishiga yo‘l qo‘ymasligini kafolatlaydi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarini:

- Qo‘mitada tashkil etilgan ishonch (71-207-49-00) telefon raqamiga;
- Qo‘mitada tashkil etilgan (anticorruption@antimon.gov.uz) alohida elektron pochta manzillariga;
- telegram tarmog‘idagi maxsus @ACRUanticor_bot orqali;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish bo‘limi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat shaklida yuborish mumkin.

36. Qo‘mita tizimining aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va Qo‘mitaning ichki idoraviy hujjatlariga muvofiq mas‘ul tuzilma yoki xodim tomonidan xolis tarzda va o‘z vaqtida ko‘rib chiqiladi.

37. Korrupsion holat haqida xabar qilgan xodim himoyaga olinadi hamda uni qasddan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, bosim o'tkazish hamda ta'qib qilish kabi holatlarga yo'l qo'yilmasligi kafolatlanadi.

38. Anonim yuborilgan xabarlarda qayd etilgan holatlar bo'yicha qonunchilik hujjatlari talablariga zid bo'lmagan dastlabki o'rganish amalga oshiriladi.

Qayd etilgan holatlar o'z tasdig'ini topgan taqdirda, Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi tashabbusi bilan xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

39. Qo'mita tizimidagi xodim tomonidan korrupsion holat haqida qasddan yolg'on ma'lumot taqdim etilishi Qo'mita odob-axloq qoidalarining buzilishi deb baholanadi hamda unga nisbatan tegishli chora qo'llaniladi.

40. Qo'mita tizimida mavjud korrupsiya faktlari to'g'risida vijdonan xabar bergan xodimlar, agar bu ma'lumotlar tasdiqlangan bo'lsa, belgilangan tartibda rag'batlantirilishi mumkin.

VI-bob. Javobgarlik

41. Mazkur Siyosat Qo'mita tizimining barcha darajadagi rahbarlari hamda xodimlari uchun majburiy xarakterga ega bo'lib, ular ushbu Siyosat va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilmagan, korrupsion holatlarga yo'l qo'ygan taqdirda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

VII-bob. Yakunlovchi qoidalar

42. Ushbu Siyosat quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi va unga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi siyosat va tartib-taomillarni qayta ko'rib chiqish zarurati kelib chiqqanda;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgarganda;

o'tkazilgan tahlillar natijasida samarasiz tartib va taomillar aniqlanganda hamda Qo'mita tizimi faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishga zarurat tug'ilganda;

Qo'mitaning tashkiliy tuzilmasi va (*yoki*) vazifalarning bajarish xususiyatlari o'zgarganda.